


“TASDIQLAYMAN”



Bo'ston tuman Aholi bandligiga

ko'maklashish markazi direktori:

D.Mo'ydinov

Bo'ston tumani Aholi bandligiga ko'maklashish markazining navbatdan tashqari
umumiy yig'ilish

BA Yo NI № 14

“04” 11 2022 yil

Bo'ston tumani

Yig'ilish raisi: D.Mo'ydinov

- Markaz direktori

Taklif etildi: S.Mirzaev

- Qorruptsiyaga qarshi kurashish
“Kompleks”sho”ba mutaxassisi

Qatnashdilar:

- Markazning barcha darajadagi
ishchi xodimlari

YIG'ILISH KUN TARTIBI:

1. Andijon viloyati Ichki ishlar boshqarmasining xududlarda jinoyatchilikka qarshi kurashish hamla ularni oldini olish bo'yicha olib borilayotgan ishlar to'g'risida.
2. Bo'ston tuman Aholi bandligiga ko'maklashish markazi xodimlarini tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar to'g'risida

(D.Mo'ydinov, K.Eminova, M.Maxammadjonova, Sh.Abduxoliqov, M.Kenjaboeva, Xududiy
mexnat nozirlari)

Yig'ilishni markaz direktori D.Mo'ydinov ochdi, yig'ilish ishtirokchilarini kun tartibida ko'riladigan masala bilan tanishtirib o'tdi.

U o'z so'zida markaz ishchi xodimlariga mansab vakolatidan foydalanmaslik, o'z xizmat vazifasi davomida olib borayotgan ishlarni xaqqoniy ish olib borishni byudjet mablag'laridan oqilona foydalanib talon –taloj qilish xolatlariga yo'l qo'ymaslikka, xar bir salbiy xolatlar to'g'risidagi xuquqni muxofaza qilish organ xodimlarini zudlik bilan xabardor qilishni tushuntirib o'tdi. Tizimda korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati, xodimlar orasida korrupsiyaga qarshi kurashish madaniyati darajasini kuchaytirish, amalga oshirilayotgan ishlar maqsadlilik, samaradorligini oshirish bo'yicha tushuntirishlar berib o'tdi. Yig'ilishni Andijon viloyati Bandlik Bosh boshqarmasi korrupsiyaga qarshi kurashish "Kompleks nazorat" sho'ba mutaxassisi S.Mirzaev so'z olib markaz xodimlariga fuqarolar va yuridik shaxslarning vakillari, hamkasblar bilan muloqotda xushmuomala bo'lishni, muomala va odob-ahloq qoidalariga qat'iy rioya qilishni, ish faoliyatida poraxo'rlik, tovlamachilik va boshqa mansab suiste'molliklariga yo'l qo'ymaslik to'g'risida gapirib o'tdi. Shuningdek xar bir xodim hamkasblari, tashkilotlar vakillari va fuqarolar bilan muloqotda xushmuomala bo'lishni, ta'magirlik, poraxo'rlik va firibgarlik holatlariga yo'l qo'ymaslikni, "Kasb odobi kodeksi" qoidalariga qat'iy rioya qilish xaqida tushuntirib o'tdi.

Yig'ilish kun tartibidagi masalalar yuzasidan

Q A R O R Q I L A D I :

1. Andijon viloyati Ichki ishlar boshqarmasining xududlarda jinoyatchilikka qarshi kurashish hamda ularni oldini olish bo'yicha olib borilayotgan ishlar to'g'risidagi tanqidiy ma'lumoti va Andijon viloyati Bandlik Bosh boshqarmasi korrupsiyaga qarshi kurashish "Kompleks nazorat" sho'ba mutaxassisi S.Mirzaevni ma'lumoti ijro uchun qabul qilinsin.
2. Markaz xodimlari: 2022 yil 6 oy yakuni bo'yicha olib borilayotgan islohatlar ishlab chiqarilgan davlat dasturlari bo'yicha olib borilayotgan ishlarni ijrosini so'zsiz ta'minlash. Ish so'rab murojaat qilgan fuqarolarni ishga joylashtirish, ishsizlarni kasbga o'qitish kam ta'minlangan oilalar farzandlarini milliy va xalq xunarmandchiligiga "Ustoz- shogird" an'anasi bo'yicha xunarga o'rgatishni tashkil etish, ishsizlarni jamoat

ishlariga jalb etishni jadallashtirish, xizmat vazifasiga kirmaydigan ishlarga aralashmaslikni yana bir bor ogoxlantirilsin.

3.Korrupsiyaga aralashmaslik bo'yicha xar bir markaz xodimidan kafolat xatlari olinsin.

4. Andijon viloyati Ichki ishlar boshqarmasining xududlarda jinoyatchilikka qarshi kurashish xamda ularni oldini olish bo'yicha olib borilayotgan ishlar to'g'risidagi ma'lumotida korrupsiya jinoyatini sodir etmaslik xamda xodimlarni ish faoliyatini nazoratga olish uchun markaz direktor o'rinbosari ma'sul etib biriktirilsin.

5.Markaz ish yurituvchisiga barcha xodimlarni kunlik ijro intizomini o'z vazifalariga ma'suliyati bilan yondoshishligini monitoring qilish va belgilangan tartibda xisobotini yuritish ishlari topshirilsin.

Bayon tuzuvchi:



M.Kamilova